«T A S D I Q L A N G A N»
O'zbekiston Respublikasi QvaSX
Vazirligi Davlat veterinariya
Bosh boshqarmasi tomonidan
3 avgust 2009 yilda.
O'zR QvaSXV DVBB qoshidagi ITK
24.07.2009 yildagi № 31-sonli bayonnoma.

GLYUKOZA ERITMALARINI VETERINARIYADA
QO'LLASH BO'YICHAYO'RIQNOMA

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1 Glyukozaning 5%, 10%, 25% va 40% eritmasi.
1.2 Preparat mexanik aralashmalari bo'lmagan shaffof, rangsiz yoki och sariq rangli suyuqlikdir.
1.3 Glyukozaning 5%, 10%, 25% va 40% eritmalari zich yopilgan shisha flakonlarda 50, 100, 200, 250, 400, 450 va 500 ml dan qadoqlangan holda ishlab chiqariladi.
1.4 Preparat quruq, yorug'liqdan pana, bolalar yeta olmaydigan joyda, 0°C dan +25°C gacha haroratda saqlanadi. Preparatni muzlatishga yo'l qo'yiladi. Muzlatilganda, zich yopilgan holda eritish lozim. Preparatning ko'rsatilgan saqlash sharoitlariga rioya qilingan holda yaroqlilik muddati – ishlab chiqarilgan sanasidan 2 yil.

2. FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1 Veterinariya maqsadlari uchun glyukozaning izotonik (5%) va gipertonik (10-40%) eritmalari qo'llanadi.
2.2 Vena qon tomiriga glyukozaning gipertonik (10-40%) eritmalari kiritilganda, qonning osmotik bosimi oshadi, suyuqliklarning va to'qimalarning qonga oqimi kuchayadi, moddalar almashinuvining jarayonlari kuchayadi, jigarning va antitoksik funksiyasi va yurakning ishlashi yaxshilanadi, qon tomirlari kengayadi, diurez kuchayadi.
Glyukoza shunigdek hayvonlarning organizmida gormonlar va fermentlarning sintezini rag'batlantiradi, organizmning himoya kuchlarini oshiradi.
2.3 Glyukozaning izotonik eritmalari organizmni suyuqlik va oson o'zlashuvchan qimmatli ozuqa materiali bilan to'ldirish uchun qo'llanadi. Glyukoza to'qimalarning ichida energiya ajratilgan holda parchalanadi, u organizmning funksiyalarini kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

3. PREPARATNI QO'LLASH TARTIBI

3.1 Glyukoza toksik yuqumli kasalliklarda, turli intoksikatsiyalarda (simob, margimush, sinil kislotasi va uning tuzlari, uglerod oksidi va boshqa moddalar bilan zaharlanishda), jigar kasalliklarida (gepatitlar, tsirrozlar), o'pka shishlari va gangrenasida, yurak faoliyatining dekompensatsiyalanuvida qo'llanadi. Glyukoza kavsh qaytaruvchi hayvonlarda intoksikatsiya, gipotoniya, old qorinning atoniyasi holatlari bilan kechgan oshqozon-ichak kasalliklarida, sigirlarda atsetonemiya, tug'ruqdan keyingi gemoglobinuriya, ketonuriya va toksemiya, qo'ylarda ketonuriya holatida qo'llanadi.
Glyukoza eritmalari kuchsiz va holsiz hayvonlarga energetik va parhez vosita sifatida belgilanadi.
3.2 Kasallikning og'irligi darajasiga qarab, preparat og'iz orqali va tomir ichiga kuniga 1-2 marta quyidagi dozalarda kiritiladi:

Hayvonlarning turlari	Hayvonlarning o'rtacha vazni (kg)	Dozalar, ml			
		5% eritma	10% eritma	25% eritma	40% eritma
Otlar	500	600-2400	300-1200	120-480	75-300
Yirik shoxli mol	400	600-3000	300-1500	120-600	75-350
Mayda shoxli mol	50	200-600	100-300	40-120	25-75
Yirik shoxli mol	60	200-600	100-300	50-150	25-75
Itlar	12	40-160	20-80	10-40	5-20

Davolash kursi har kuni, kasallik belgilari yo'qolguncha takrorlanadi.
3.3 Glyukoza eritmalari tavsiya etilgan dozalarda asoratlarni keltirib chiqarmaydi va nojo'ya ta'sir ko'rsatmaydi. Uni qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar yo'q.
3.4 Preparat qo'llanganda chorvachilik mahsuloti cheklashsiz oziq-ovqat maqsadlari uchun ishlatiladi.

4. E'TIROZLARNI BILDIRISH TARTIBI

4.1 Preparat mazkur Yo'riqnomaning talablariga mos kelmagan holda, uni qo'llash to'xtatiladi, bu haqda O'zbekiston Davlat veterinariya preparatlarining ilmiy-nazorat laboratoriyasiga quyidagi manzil bo'yicha bildiriladi: 700178, Toshkent shahri, A.Yunusov ko'chasi, 1a-uy. Tel./faks: 228-76-14, 229-30- 47. E-mail: uzgnkl@rambler.ru. Ayni paytda laboratoriya manziliga laboratoriya bilan avvaldan kelishilgan miqdorda preparatning ochilmagan o'ramlari, va preparatning Yo'riqnoma talablariga mos kelmasligi xususiyatlarining batafsil ta'rifi yuboriladi.

Ishlab chiqaruvchi:
O'zbekiston-Buyuk Britaniya-Rossiya Qo'shma Korxonasi
«O'ZBIOKOMBINAT» MChJ
140532, O'zbekiston Respublikasi,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani,
«Namuna» QFY, O'rta - Charxin mahallasi,
Tel: +998 (95) 500 8161
Faks: +998 (66) 234 1134
www.biokombinat.uz
info@biokombinat.uz

TS 00483044-25:2013

biveco®
biveco.com